

**IJRO INTIZOMINI TA'MINLASHDA RAQAMLI BOSHQARUV
TIZIMLARINING ROLI**

Institute for analysis and regulatory impact assessment of legislation under the
Ministry of Justice Office administrator

Aslanov Sarvar Tolmasovich

Annotation

This article examines the role of digital management systems in ensuring execution discipline within modern organizations. It analyzes the theoretical foundations of execution discipline, its distinction from labor discipline, and their interrelation in organizational management. The study highlights how digital technologies enhance transparency, efficiency, and accountability in the execution of managerial decisions. In addition, the article explores the advantages of digital management systems, including real-time monitoring, automation of document flow, and reduction of human error. It also discusses existing challenges in the implementation of such systems, such as insufficient digital skills, technical infrastructure limitations, resistance to change, and information security risks. Furthermore, the article provides an overview of international experiences in countries such as Estonia, South Korea, Singapore, and the United Kingdom. Based on the analysis, conclusions and recommendations are presented to improve execution discipline through the wider adoption of digital governance tools.

Keywords

Digital management systems, execution discipline, labor discipline, public administration, digital transformation, electronic document management, monitoring systems, transparency, efficiency, accountability, information security, e-government, smart governance.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijro intizomini ta'minlashda raqamli boshqaruv tizimlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijro intizomining nazariy asoslari, uning mehnat intizomidan farqi hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar boshqaruv qarorlarining shaffofligi, samaradorligi va javobgarligini oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Maqolada real vaqt rejimida



monitoring, elektron hujjat aylanishi va inson omilini kamaytirish kabi afzalliklar ham ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, raqamli tizimlarni joriy etishdagi muammolar — raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi, texnik infratuzilma muammolari, o‘zgarishlarga qarshilik hamda axborot xavfsizligi masalalari tahlil qilingan. Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Buyuk Britaniya tajribalari asosida xorijiy amaliyot ham o‘rganilgan. Tadqiqot yakunida raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish orqali ijro intizomini yanada mustahkamlash bo‘yicha xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar

Raqamli boshqaruv tizimlari, ijro intizomi, mehnat intizomi, davlat boshqaruvi, raqamli transformatsiya, elektron hujjat aylanishi, monitoring tizimlari, shaffoflik, samaradorlik, javobgarlik, axborot xavfsizligi, elektron hukumat, aqlli boshqaruv.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida ijro intizomi tashkilot faoliyatining samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qarorlar qabul qilinishi bilan bir qatorda, ularning o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi ham alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi boshqaruv jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, ijro intizomini ta‘minlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli boshqaruv tizimlari orqali nazorat, monitoring va tahlil qilish jarayonlari ancha samarali va shaffof tus olmoqda.

Ijro intizomi — bu tashkilotda qabul qilingan qarorlar, topshiriqlar va rejalarining belgilangan muddat va talablar asosida bajarilishini ta‘minlovchi tizimli jarayondir. U boshqaruv samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish;
- belgilangan standartlarga rioya qilish;
- mas‘uliyat va javobgarlikni aniq taqsimlash;
- natijalarni doimiy monitoring qilish.

An‘anaviy boshqaruv usullarida ijro intizomini nazorat qilish ko‘p hollarda inson omiliga bog‘liq bo‘lib, bu esa xatoliklar, kechikishlar va subyektiv yondashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish dolzarb masalaga aylandi.

Ayrim holatlarda Ijro intizomi va mehnat intizomini bir xil tushunchalar sifatida tushunish holatlari ham uchraydi. Ijro intizomi va mehnat intizomi boshqaruv tizimida o‘zaro yaqin, ammo mazmunan farqlanuvchi tushunchalardir. Ularni to‘g‘ri anglash va



farqlash tashkilot faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijro intizomi — bu rahbarlar va vakolatli organlar tomonidan berilgan topshiriqlar, qarorlar va ko‘rsatmalarning belgilangan muddatlarda, to‘liq va sifatli bajarilishini ta‘minlash jarayonidir. Bu tushuncha asosan boshqaruv va nazorat tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, unda vazifalarning o‘z vaqtida ijro etilishi, natijadorlik va hisobotlilik muhim o‘rin tutadi.

Mehnat intizomi esa xodimlarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishi, ish vaqtiga amal qilishi, xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishi, tashkilotdagi odob-axloq va kasbiy me‘yorlarga amal qilishi bilan ifodalanadi. Bu tushuncha ko‘proq xodimlarning kundalik ish faoliyati va xulq-atvoriga taalluqlidir.

Mazkur ikki tushunchani farqlash lozim, chunki ular boshqaruvning turli darajalarini qamrab oladi. Ijro intizomi — strategik va tashkiliy darajadagi vazifalar ijrosini anglatadi, mehnat intizomi esa individual xodimlarning ishga munosabatini ifodalaydi. Shunga qaramay, ular o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, mehnat intizomi ijro intizomiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar xodimlar mehnat intizomiga rioya qilmasa, ya‘ni ishga kechiksa, vazifalarga mas‘uliyatsiz yondashsa yoki ichki tartib-qoidalarga amal qilmasa, bu holat berilgan topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilmasligiga olib keladi. Aksincha, yuqori darajadagi mehnat intizomi mavjud bo‘lgan jamoada esa ijro intizomi mustahkam bo‘ladi. Chunki har bir xodim o‘z vazifasiga mas‘uliyat bilan yondashadi, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradi va umumiy maqsadga erishishga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, ijro intizomi va mehnat intizomi tartibga soluvchi manbasiga ko‘ra ham farqlanadi. Mehnat intizomi Mehnat kodeksi (18-bob. Mehnat intizomi), ichki mehnat tartib-qoidalari, nizomlar va boshqa lokal hujjatlar bilan tartibga solinsa, ijro intizomi esa shu tashkilotning ichki nizomlari, yo‘riqnomalari va ijroni ta‘minlashda lozim bo‘lgan ko‘rsatma va buyruqlar orqali tartibga solinadi.

Yuqoridagi ikkala intizomiy holatlar uchun javobgarlik qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga ikkala intizomiy jihatlar bugungi kunda jadal raqamlashtirilmogda.

Ijro intizomini mustahkamlashda raqamli boshqaruv tizimlarining o‘rni, afzalliklari hamda amaliy ahamiyatiga to‘xtalsak. Raqamli boshqaruv tizimlari - bu tashkilot faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi dasturiy va texnologik vositalar majmuasidir. Ular quyidagi



funksiyalarni bajaradi:

- hujjatlar aylanishini elektron shaklga o‘tkazish;
- topshiriqlarni avtomatik taqsimlash va nazorat qilish;
- real vaqt rejimida monitoring olib borish;
- hisobotlarni avtomatik shakllantirish;
- ma’lumotlar bazasini markazlashgan holda yuritish.

Mazkur tizimlar boshqaruv jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli tizimlar orqali barcha topshiriqlar va ularning ijrosi ochiq va kuzatiladigan bo‘ladi. Har bir vazifa kimga birlashtirilgan, qachon bajarilishi kerakligi va uning holati aniq ko‘rinib turadi. Bu esa korrupsiya va suiiste‘mol holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar yordamida topshiriqlar ijrosi real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Rahbarlar istalgan vaqtda vazifalarning bajarilish holatini ko‘rish va zarur choralarni tezkor ko‘rish mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar inson xatolarini sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, topshiriqlarni unutish, noto‘g‘ri taqsimlash yoki kechiktirish holatlari kamayadi. Har bir topshiriq aniq ijrochiga birlashtirilgan sababli, javobgarlik darajasi oshadi. Tizim orqali kim, qachon va qanday natija ko‘rsatgani aniq qayd etiladi. Raqamli tizimlar yig‘ilgan ma’lumotlar asosida tahliliy hisobotlar tuzadi. Bu esa kelajakdagi faoliyatni rejalashtirish va muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- Tezkorlik – raqamli boshqaruv tizimlari qarorlar va topshiriqlarning ijrochilarga qisqa muddatlarda, deyarli bir vaqtning o‘zida yetkazilishini ta’minlaydi. Natijada vaqt yo‘qotishlarining oldi olinadi, boshqaruv jarayonlari tezlashadi hamda vazifalarning kechikib bajarilishi ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Bu esa tashkilot faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
- Aniqlik – mazkur tizimlar orqali ma’lumotlar avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlanadi, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamayadi. Natijada axborotlarning ishonchliligi, aniqligi va yaxlitligi ta’minlanadi. Bu esa qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining asoslanganligini kuchaytiradi va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishining oldini oladi.
- Resurslarni tejash – raqamli tizimlarning joriy etilishi qog‘oz hujjatlar aylanishini keskin qisqartiradi, natijada moddiy resurslar bilan bir qatorda vaqt va mehnat resurslari ham tejab qolinadi. Bundan tashqari, hujjatlarni saqlash, qidirish va qayta



Learning and Sustainable Innovation

ishlash jarayonlari soddalashadi, bu esa ish unumdorligini oshiradi.

– Nazorat samaradorligi – topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy, tizimli va real vaqt rejimida nazorat o‘rnatiladi. Rahbarlar istalgan vaqtda vazifalarning bajarilish holatini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa muammolarni erta aniqlash, kechikishlarning oldini olish va zarur choralarini tezkor ko‘rish imkonini beradi.

– Integratsiya imkoniyati – raqamli boshqaruv tizimlari turli axborot tizimlari va platformalar bilan o‘zaro integratsiya qilinishi mumkin. Bu esa ma’lumotlar almashinuvini soddalashtiradi, takroriy ishlarni kamaytiradi va yagona axborot makonini shakllantiradi. Natijada tashkilot ichidagi hamda tashqi tizimlar bilan hamkorlik yanada samarali yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, raqamli tizimlar tashkilotning umumiy boshqaruv madaniyatini ham yuksaltiradi.

Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishda bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Avvalo, xodimlarning raqamli ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, ularning malakasini oshirish maqsadida muntazam o‘quv va amaliy treninglar tashkil etish zarur. Bundan tashqari, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnikasi va barqaror internet tarmog‘ining mavjud emasligi ish jarayonining uzluksizligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, IT infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish talab etiladi. Yangi tizimlarga o‘tishda xodimlarning qarshiligi ham kuzatilishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun tizimlarning afzalliklarini tushuntirish va rag‘batlantirish choralari qo‘llash muhimdir. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlash alohida e’tibor talab etadi. Ma’lumotlarni himoya qilish maqsadida zamonaviy kiberxavfsizlik choralari joriy etish zarur. Umuman olganda, mazkur muammolarni kompleks yondashuv asosida hal etish raqamli tizimlarning samarali ishlashini ta’minlaydi.

Ijro intizomini ta’minlashda raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi muhim amaliy ahamiyatga ega. Xorijiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar boshqaruv samaradorligini oshirish, nazoratni kuchaytirish va shaffoflikni ta’minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Masalan, Estoniya tajribasi bu borada alohida e’tiborga loyiq. Ushbu davlatda davlat



boshqaruvi to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, barcha davlat xizmatlari yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi. "e-Estonia"¹ tizimi orqali topshiriqlar ijrosi real vaqt rejimida nazorat qilinadi, hujjatlar elektron shaklda yuritiladi va inson omili sezilarli darajada kamaytirilgan. Natijada ijro intizomi yuqori darajada ta'minlangan.

Shuningdek, Janubiy Koreyada "e-Government"² tizimi keng joriy etilgan. Bu tizim orqali davlat organlari faoliyati to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, topshiriqlar ijrosi markazlashgan holda monitoring qilinadi. Har bir vazifa bo'yicha aniq muddatlar belgilanadi va tizim orqali ijrochilar faoliyati baholanadi. Bu esa mas'uliyatni oshirish va ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Singapur tajribasida esa "Smart Nation"³ dasturi doirasida raqamli boshqaruv tizimlari keng qo'llaniladi. Davlat boshqaruvida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalaridan foydalanish orqali qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada boshqaruv jarayonlari tezkor va aniq amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada Government Digital Service (GDS)⁴ orqali davlat xizmatlari yagona platformaga birlashtirilgan. Bu tizim orqali topshiriqlar ijrosi ustidan markazlashgan nazorat o'rnatilib, hisobotlar avtomatik shakllantiriladi. Bu esa davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi.

Ijro intizomini ta'minlashda raqamli boshqaruv tizimlari muhim o'rin tutadi. Ular boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirib, shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Natijada, tashkilot faoliyati yanada tartibli va natijador bo'ladi. Kelgusida raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini qo'llash orqali ijro intizomini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shu jihatdan, raqamli boshqaruv tizimlari nafaqat texnologik vosita, balki samarali boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

¹ Estoniya – e-Estonia

<https://e-estonia.com>

<https://e-estonia.com/solutions/e-governance>

² South Korea– e-Government

<https://www.gov.kr/portal/main>

³ Singapur – Smart Nation

<https://www.smartnation.gov.sg>

⁴ Buyuk Britaniya – GDS

<https://www.gov.uk/government/organisations/government-digital-service>



FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar.

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagidagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida” qonuni.

II. Ilmiy nashrlar.

- 2.1. Smart Governance In The Digital Era: Models And Global Practices(<https://ejournal.goacademica.com/index.php/jv/article/view/1421>)

III. Elektron manbalar.

- 3.1. <https://lex.uz>
- 3.2. <https://e-estonia.com>
- 3.3. <https://e-estonia.com/solutions/e-governance/>
- 3.4. <https://www.gov.kr/portal/main>
- 3.5. <https://www.smartnation.gov.sg>
- 3.6. <https://www.gov.uk/government/organisations/government-digital-service>